

“O‘ZMETKOMBINAT” AJ DA TO‘QNASHUVCHI XAVFLAR:

QONUNCHILIK VA POTENSIAL MUAMMOLAR

“O‘zmetkombinat” AJ mamlakatimiz sanoatida va iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Kombinatda qonunchilikka rioya qilish, shaffoflik va adolatni ta‘minlash asosiy talablardan biridir. Shu sababli metallurgiya sanoatida uchrashi mumkin bo‘lgan bir necha muhim xavflar haqida ogohlantirish va ularni bartaraf etish choralari ko‘rish lozim.

Antimonopol xavflar. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldagi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni bozorda raqobat muhitini yaxshilash va tadbirkorlik erkinligini mustahkamlashni maqsad qiladi. Tashkilotlar tomonidan raqobatga qarshi kelishuvlar, narxlarini sun‘iy ravishda oshirish yoki bozorda monopol mavqeni suiiste‘mol qilish kabi xatti-harakatlar amalda qonunbuzarlik hisoblanadi. Bunday holatlar metallurgiya bozorida boshqa ishtirokchilar manfaatlariga ziyon yetkazadi va iqtisodiy o‘rishni to‘xtatib qo‘yishi mumkin.

Pora olish yoki berish xavflari. Korrupsiya – har qanday sohaning barqaror rivojlanishiga jiddiy tahdid soluvchi omildir. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Jinoyat kodeksida pora olish yoki berish bilan bog‘liq jinoyatlar uchun og‘ir jazo choralari ko‘zda tutilgan. Korrupsiya holatlari ishlab chiqarish jarayonida mahsulot xarid qilish, shartnomalar tuzish yoki mansabdor shaxslar bilan kelishuvlar olib borishda sodir bo‘lishi mumkin. Bunday jinoyatlar ishbilarmonlik muhitiga jiddiy putur yetkazadi.

Firibgarlik xavflari. Kombinat ichida yoki tashqarisida firibgarlik holatlari (hisobotlar bilan aldov, moddiy mablag‘lar yoki xomashyoni tasarruf etishda nomaqbul harakatlar) xavflidir. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq, moliyaviy yoki boshqa ko‘rinishda ziyon yetkazuvchi bunday xatti-harakatlar uchun javobgarlik belgilangan.

Manfaatlar to‘qnashuvi xavflari. Kombinat manfaatlar to‘qnashuvi rahbarlar yoki xodimlar shaxsiy yoki oilaviy manfaatlarini kombinat manfaatidan ustun qo‘yganda yuzaga keladi. Bu xavf qarindoshlar bilan asossiz shartnomalar imzolash kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Qonunchiligimiz bunday xatti-harakatlarning oldini olish va manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish tartiblarini belgilab beradi.

Xizmat vakolatini suiiste‘mol qilish xavflari. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida mansabdor shaxslar tomonidan o‘z xizmat vakolatlarini suiiste‘mol qilish, vakolat chegaralaridan chiqib ketish yoki bunday suiiste‘mol orqali shaxsiy manfaat ko‘zlash qat‘iy taqiqlanadi. Kombinatda rahbariyat tomonidan noqonuniy buyruqlar berish, xodimlarni majburiy ravishda shaxsiy maqsadlariga yo‘naltirish kabi holatlar qonun oldida javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, kombinatda to‘qnashuvchi mazkur xavflar nafaqat korxonaning obro‘sig, balki umumiy iqtisodiy taraqqiyotga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Qonunchilikni puxta bilish, muntazam o‘quv va nazorat tizimlarini joriy qilish, barcha xodimlarning yuridik xabardorligini oshirish – ushbu xavflarning oldini olishda eng samarali vositalardir.

Shu bilan birga barcha manfaatdor shaxslar, kombinat rahbariyati va xodimlarini qonunbuzarliklardan ogoh bo‘lishga, shaffoflikni ta‘minlashga va korxona rivojiga munosib hissa qo‘shishga chaqiramiz.

***To‘lqin XOJIYEV, “O‘zmetkombinat” AJning Kuzatuv
Kengashi huzuridagi Komplayens xizmati boshlig‘i.***